CHORVACHILIKNI HUDUDIY TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI

Maxmudova Gulmira Xamidovna
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: otayorovagulmera@gmail.com
ORCID: 0009-0004-9977-6630

Annotatsiya. Mazkur maqolada chorvachilikni hududiy tashkil etishning nazariy asoslari – tushuncha va omillar, joylashtirish nazariyalari, ixtisoslashuv va konsentratsiya ko'rsatkichlari, FAO chorvachilik tizimlari tasnifi tahlil qilingan hamda Samarqand viloyati uchun uch tizimli hududiy tuzilma va besh tamoyil asoslangan.

Kalit so'zlar: hududiy tashkil etish, joylashtirish nazariyasi, ixtisoslashuv, yaylov sig'imi, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данной статье проанализированы теоретические основы территориальной организации животноводства: понятие и факторы, теории размещения, показатели специализации и концентрации, а также классификация систем животноводства ФАО. Для Самаркандской области обоснованы трёхсистемная территориальная структура и пять принципов.

Ключевые слова: территориальная организация, теория размещения, специализация, ёмкость пастбищ, устойчивое развитие.

Abstract. This article analyses the theoretical foundations of the territorial organization of livestock farming: the concept and its factors, location theories, indicators of specialization and concentration, and the FAO classification of livestock production systems. A three-system territorial structure and five principles are substantiated for Samarkand region.

Keywords: territorial organization, location theory, specialization, carrying capacity, sustainable development.

Kirish. O'zbekistonda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida oziq-ovqat xavfsizligi va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish ustuvor yo'nalish etib belgilangan [1]. Samarqand viloyatida qishloq xo'jaligi mahsulotining salmoqli qismi chorvachilikka to'g'ri keladi, qoramolning 93 foizi esa dehqon va tomorqa xo'jaliklarida jamlangan [2]. Tarmoqning tabiiy-geografik salohiyati, ixtisoslashuvi va yaylov chorvachiligining ta'siri [5] alohida o'rganilgan bo'lsa-da, ularni yagona nazariy tizimga birlashtirish masalasi yetarli yoritilmagan. Mazkur tadqiqotning maqsadi chorvachilikni hududiy tashkil etishning nazariy asoslarini umumlashtirib, ularni Samarqand viloyati sharoitida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqot davomida tizimli yondashuv, tarixiy-geografik, qiyosiy-geografik, tipologik va statistik tahlil usullaridan qo'llanildi. Joylashtirish nazariyalariga oid klassik asarlar, FAO chorvachilik tizimlari tasnifi, Samarqand viloyati chorvachiligiga oid tadqiqotlar va rasmiy statistika tahlil qilindi.

Natijalar va muhokama. Chorvachilikni hududiy tashkil etish – tarmoqlar, xo'jaliklar va infratuzilmaning ma'lum hududda o'zaro bog'lanib joylashishi, ixtisoslashuvi va konsentratsiyasidir. U chorvachilikning qayerda va nima uchun joylashish qonuniyatlarini hamda xo'jaliklar, ozuqa bazasi, qayta ishlash va bozor o'rtasidagi hududiy aloqalarni qamrab oladi. Tarmoqda ishlab chiqarish vositasi tirik organizm bo'lib, mahsuldorlik tabiiy sharoitga bog'liq, ishlab chiqarish mavsumiy, tez buziladigan mahsulotni tashish xarajati yuqori va yuqumli kasalliklar xavfi mavjud. Joylashuvga tabiiy (relyef, iqlim,

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

suv, yaylov), iqtisodiy (ozuqa bazasi, bozor, transport, qayta ishlash), ijtimoiy-demografik (aholi zichligi, mehnat resurslari) va institutsional (davlat siyosati, kooperatsiya, klasterlar) omillar ta'sir etadi. Tabiiy sharoit ixtisoslashuvning dastlabki sharti bo'lsa-da [3], amalda u xo'jalik tuzilmasi va bozor ta'sirida shakllanadi [4]. Shu bois hududiy tashkil etish ko'p omilli tizim sifatida o'rganilishi lozim.

I.G. fon Tyunen modelida bozor markazi atrofida ishlab chiqarish halqalari shakllanadi. Bozorga yaqin zonada tez buziladigan mahsulotlar (sut, sabzavot), chekkada esa ekstensiv chorvachilik joylashadi [6]. Bu mantiq bugun ham shahar atrofi sut chorvachiligi bilan chekka yaylov chorvachiligining farqlanishini tushuntiradi. A.V. Chayanov oilaviy xo'jalik foydani emas, oila mehnati va iste'mol ehtiyoji o'rtasidagi muvozanatni ko'zlashini ko'rsatgan [8]. Bu g'oya dehqon va tomorqa xo'jaliklari ustun hududlarda chorvachilik ko'lamini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. N.N. Kolosovskiyning ishlab chiqarish-hududiy kompleks nazariyasi tarmoqlarning hududda texnologik zanjir sifatida shakllanishini asoslaydi [7]. Nazariyalarning qiyosiy tavsifi jadvalda keltirilgan.

1-jadval. Chorvachilikni joylashtirish nazariyalarining qiyosiy tavsifi

Muallif (yil)	**Asosiy g'oya**	**Chorvachilik uchun ahamiyati**
Tyunen (1826)	Bozordan masofaga qarab ishlab chiqarish zonalari	Sut chorvachiligi bozor yaqinida, ekstensiv yaylov chorvachiligi chekkada
Veber (1909)	Transport va mehnat xarajatlarini kamaytirish, agglomeratsiya	Qayta ishlash va xarid markazlarining joylashuvi
Chayanov (1925)	Oilaviy xo'jalik mehnat va iste'mol muvozanatiga tayanadi	Dehqon va tomorqa xo'jaliklari mantig'i
Kolosovskiy (1969)	Ishlab chiqarish-hududiy kompleks	Ozuqa–parvarish–qayta ishlash–sotuv zanjiri, klasterlar

Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Nazariyalar joylashtirishning to'rt tamoyilini ajratish imkonini beradi: ozuqa bazasiga yaqinlik; iste'molchi va qayta ishlash korxonalariga yaqinlik; hududning tabiiy sig'imiga muvofiqlik; infratuzilma va kooperatsiyaning mavjudligi.

Hududiy tashkil etishning asosiy jarayonlari – ixtisoslashuv, konsentratsiya va kombinatsiyalash [7] hisoblanadi. Ixtisoslashuv quyidagi formular asosida hisoblanadi:

$$K_{ir} = \left(\frac{q_{ir}}{Q_r}\right) : \left(\frac{q_i}{Q}\right) \quad (2.1)$$

bunda, K_{ir} – r-hududning i-mahsulot (tarmoq) turi bo'yicha ixtisoslashuv koeffitsienti;

q_{ir} – i-mahsulot turining r-hududdagi ishlab chiqarish hajmi;

Q_r – r-hududda barcha mahsulot turlari bo'yicha jami ishlab chiqarish hajmi;

q_i – i-mahsulot turining taqqoslash asosi sifatida olingan katta hudud (viloyat, iqtisodiy rayon yoki respublika) bo'yicha ishlab chiqarish hajmi;

Q – katta hududda barcha mahsulot turlari bo'yicha jami ishlab chiqarish hajmi.

Bunda r-hudud sifatida tadqiqot maqsadiga qarab istalgan hududiy birlik (tuman, shahar atrofi zonasi, tabiiy-xo'jalik mintaqasi va h.k.) olinishi mumkin; ishlab chiqarish hajmi natural (tonna, shartli bosh) yoki qiymat ifodasida beriladi.

$K_{ir} > 1$ bo'lsa, hudud shu tarmoq bo'yicha ixtisoslashgan hisoblanadi. Konsentratsiya chorva zichligi (shartli bosh/100 ga), kombinatsiyalash esa ozuqa bilan o'zini ta'minlash va qayta ishlash bilan bog'liqlik orqali o'lchanadi.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

K. Sere va H. Shtaynfeld taklif etgan, FAO qabul qilgan tasnifda to'rt tizim farqlanadi: yaylov, aralash lalmi, aralash sug'oriladigan va yerga bog'lanmagan – industrial chorvachilik ishlab chiqarish tizimlari [9]. Talab va daromad o'sishi bilan yaylov tizimlari aralash, aralash tizimlar esa intensiv shakllarga o'tib boradi, shu bois tizimning o'zgarish yo'nalishini ham hisobga olish lozim.

Yaylov chorvachiligida yaylov sig'imi – yaylov hosildorligi va bir shartli bosh chorvaning ozuqa ehtiyoji nisbati – markaziy tushuncha bo'lib, bahorgi-kuzgi, yozgi va qishki yaylovlar bo'yicha alohida hisoblanadi. Yaylovlardan jamoaviy foydalanishda biologik sig'im bilan birga foydalanish qoidalari, nazorat va institutsional boshqaruv ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Barqaror rivojlanish nuqtayi nazaridan chorvachilik iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy ahamiyat (bandlik, oziq-ovqat xavfsizligi) va ekologik barqarorlik (yaylov, suv, iqlim) muvozanatini talab qiladi; uni hududiy baholashda chorva zichligi, yaylov sig'imidan foydalanish darajasi, bir boshga mahsuldorlik, aholi jon boshiga ishlab chiqarish va kooperatsiya bilan qamrov ko'rsatkichlari qo'llaniladi.

Samarqand viloyatiga qo'llanganda uch hududiy tizim ajraladi: sug'oriladigan vodiy tumanlarida (Toyloq, Oqdaryo, Jomboy) aralash sug'oriladigan va intensiv, tog'oldi hududlarida (Urgut, Bulung'ur, Payariq) aralash, cho'l-yaylov hududlarida (Nurobod, Qo'shrabot, Paxtachi) yaylov tizimlari. 793,3 ming ga yaylovning notekis taqsimlanishi [5] sig'imni har bir tuman uchun alohida baholashni, mayda xo'jaliklar ustunligi [2] esa Chayanov mantig'ini dolzarb qilib, ularni kooperatsiya orqali Kolosovskiy ma'nosidagi qiymat zanjiriga qo'shishni taqozo etadi. Shu asosda besh tamoyil taklif etiladi: chorva zichligini ozuqa bazasiga muvofiqlashtirish; vodiyda intensiv, tog'oldida aralash, yaylovda mavsumiy aylanma o'tlatishga asoslangan ixtisoslashuv; yaylovlarda institutsional boshqaruv; kooperatsiyani rivojlantirish; GAT asosida yaylov va chorva monitoringi.

Xulosa. Chorvachilikni hududiy tashkil etish ko'p omilli tizim bo'lib, joylashtirish nazariyalari, ixtisoslashuv ko'rsatkichlari va FAO tasnifi uni baholashning nazariy-metodik asosini beradi. Yaylov chorvachiligi nazariyasi biologik sig'im bilan birga institutsional boshqaruv ahamiyatini, barqaror rivojlanish tamoyillari esa iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik o'lchamlar muvozanatini zarur qilib qo'yadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5853-son Farmoni.
2. Berdikulov F. et al. the agribusiness of Samarkand's suburbs as a foundation for the city's sustainable food security //R-Economy. 2026. Vol. 12. Iss. 1. – 2026. – T. 12. – №. 1. – C. 94-108.
3. Ibragimov L.Z. Importance of Studying Natural and Geographical Potential of Regions in Economic-Geographical Research (A Case Study of Samarkand Region) // Science and World. – 2016. – №7(35), Vol. II. – P. 111–115.
4. Ibragimov L., Boboyev Sh., Berdiqulov F., Maxmudova G. Specialization of Agriculture of Samarkand Region // Journal of Geography and Natural Resources. – 2024. – Vol. 12(16). – P. 39–49.
5. Namozov J.A. Assessment of Effects of Pasture Livestock on Agricultural Land in the Example of the Samarkand Region // Science and Education in Karakalpakstan. – 2023. – №3/1. – P. 173–177.
6. Ibragimov L. Z. et al. Samarqand shahri atrofi hududlarida qishloq xo 'jaligi rivojlanishining zamonaviy muammolari va istiqbollari //SCIENCE and SOCIETY. – 2026. – №. 4-1. – C. 87-89.
7. Колосовский Н.Н. Теория экономического районирования. – М.: Мысль, 1969.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

8. Chayanov A.V. The Theory of Peasant Economy / Ed. by D. Thorner, B. Kerblay, R.E.F. Smith. – Homewood, Ill.: Richard D. Irwin, 1966.
9. Seré C., Steinfeld H. World livestock production systems: current status, issues and trends. FAO Animal Production and Health Paper 127. – Rome: FAO, 1996.
10. Zulkhumor, T., Lutfullo, I., Muazzam, S., & Nizomiddin, J. (2022). Territorial characteristics of social and environmental problems in the location of the population of Uzbekis. International Journal of Health Sciences, 6(S3), 11026-11033

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.